

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MANTIQUIY TAFAKKURNI O'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Rahimova Umida Sherali qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-kurs magistranti

tel: +998 93 760 72 02

email: umidaraximova24@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivolantirishning didaktik usullaridan foydalanish samaradorligini va o'quvchilarning hozirjavoblik, fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'z: mantiqiy fikrlash, tafakkur, didaktik o'yinlar, sonlar, boshqotirmalar, qiziqarli masalalar, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, mulohazalar.

Аннотация: Данная статья направлена на повышение эффективности использования дидактических методов развития логического мышления учащихся и повышения умений учащихся присутствовать и мыслить.

Ключевые слова: логическое мышление, мышление, дидактические игры, числа, головоломки, интересные задачи, анализ, синтез, сравнение, обобщение, классификация, рассуждение.

Abstract: This article is aimed at increasing the effectiveness of the use of didactic methods for developing students' logical thinking and increasing students' ability to be present and think.

Key words: logical thinking, thinking, didactic games, numbers, puzzles, interesting problems, analysis, synthesis, comparison, generalization, classification, reasoning.

Kirish. Hozirgi davr talablardan biri - bu mantiqiy fikrlay oladigan ijodkor yoshlarni tarbiyalashdir. Bunday yoshlarni tarbiyalashda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xizmati benihoya katta. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi darslarda o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatmog'i lozim. Matematika darslari qanchalik qiziqarli bo'lsa, o'quvchilarning o'ylash, fikrlash, hisoblash qobiliyatlari shuncha takomillashadi. O'qitishning samaradorligini oshirish va bolalarni kamol toptirish

uchun eng oldin beriladigan masala mazmuniga birinchi navbatda e'tibor berilsa, unumli foyda beradi.

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi:

birinchidan, ilg'or ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarning taklif qilinishi va xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi;

ikkinchidan, xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag'batlantirish tizimi joriy etildi;

uchinchidan, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqotlarning o'zaro integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida Talabalar shaharchasida Fanlar akademiyasining V.I. Romanovski nomidagi Matematika institutining (keyingi o'rinlarda — Institut) yangi va zamonaviy binosi barpo etildi. Matematika sohasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi bir yarim barobarga oshirildi, budget mablag'lari hisobidan superkompyuter, zamonaviy texnika va asbob uskunalar xarid qilindi;

to'rtinchidan, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashning birlamchi bosqichi sifatida stajor-tadqiqotlik instituti joriy etildi;

beshinchidan, ilm-fan sohasidagi ustuvor muammolarni tezkor bartaraf etish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalasini Hukumat darajasida belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raisligida Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi.

Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar matematika sohasidagi ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Ta'limning barcha bosqichlarida matematika fanini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning samarali mehnatini qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar

strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi belgilab olindi[1].

Asosiy qism. Hozirgi kunda biz matematika darslarida ko‘p vaqt misollar yechishga berilib, masalalar bilan ishlashga, ayniqsa, topqirlikka doir topshiriqlar: rebuslar, qiziqarli masalalar, boshqotirmalar, krassvord bilan ishlashga kam e’tibor qaratishimiz asosida kichik yoshdagi o‘quvchilarga mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanmay qoladi. O‘quvchilar beriladigan masalani yetarlicha mulohaza qila olmaydilar, unda berilgan va izlanayotgan sonlarga ko‘ra shartlarni aniqlab chuqur izlanmay, mexanik ravishda amallarni bajaradilar. Asosan, masala yechishda biz o‘quvchilarga yechib ko‘rsatilgan namunada qanday ketma-ketlik bo‘lsa , shunday yechishga odatlanganmiz . Bu esa o‘quvchilarni ma’lum bir tizim asosida masalada berilgan sonni ishlatib, masala mazmuniga va so‘ralayotgan miqdorga e’tiborsizlikka olib keladi va bola mantiqiy fikrlamay xulosa chiqaradi.

Ta’lim jarayoni , qolaversa, dars jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga har bir topshiriq ustida ijodiy yondashuvga, asosli xulosa chiqarishga undash uchun qiziqarli mantiqiy masalalar va nostandart masalalarning bajarishning roli katta.

Boshlang‘ich sinf matematika kursida biz qiziqarli masalalardan foydalansak, bu oquvchilarni darsga bolgan qiziqishlari va faolligini oshiradi. Agar bolalarning yosh xususiyatiga moslab mantiqiy masalalar bersak, ularda ijodkorlik, hayotiylik, maqsadga intilish kabi xislatlar rivojlanadi. Chunki bu qiziqarli va mantiqiy masalalar yechimi to‘g‘ri amal bilan chiqmaydi, bular ustida ishlash yechimni toppish uchun topshiriqdagi har bir so‘zga, gapga e’tibor berib , uning hayotdagi o‘rnini bilib, unga asoslanib, yechgan o‘quvchigina togri yechimga boradi. Agar bola masala oqilayotganda biror detallga e’tibor bermasa, bu uni notogri yechishga olib boradi. Agar e’tibor berib qaralsa , ya’ni masalada gap borayotgan fikr va predmet ustida diqqat bilan qaralsagina , ya’ni bola ko‘z oldiga gavdalantirilsa ijobiy natijaga erishiladi. Oddiy ko‘ringan masalalar yechimi hech qachon birdaniga chiqmaydi. U o‘zida sirli jumboqni yashiradi. Buni yechish uchun oquvchi ijodkor bo‘lmog‘i lozim. Mantiqiy topshiriqlar oyinlar, didaktik materiallar bilan amaliy ishlar darsda nisbatan katta orin egallashi kerak. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy oyinlar o‘quvchi biluv faoliyatini oshirish vositasida muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o‘yin o‘quvchi ta’lim- tarbiya olishi, uning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarga har bir oyinni orgatishda muayyan ta’limiy maqsadni nazarda tutish o‘qituvchi diqqat markazida bolishi zarur. O‘yin orqali o‘quvchi o‘tiladigan mavzu yuzasidan bilim

oladi, ko'nikma malakalarga erishadi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham shundadir. Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilarni hamjihatlikka, intizomlikka sezgilikka, topqirlikka, e'tiborli bo'lishga, qat'iylikka undaydi. Didaktik o'yinlar o'quvchi faoligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'yinga kirishgan o'quvchidan o'quv topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bolishni talab etadi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. O'quvchi ijodkorligini oshirishda mantiqiy o'yinlar nihoyatda zarur [2; 21-22-ctp]. Mantiqiy o'yinlar o'quvchi tafakkuriga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchi biluv faoliyatining rivojlanishiga yordam beradi. Inson bilishning hissiy va mantiqiy bosqichi mavjud. Odamzotning hissiy bilishi uning sezgi, idrok, tasavvurlarida o'z ifodasini topadi. Mantiqiy tafakkur – tafakkurning asosiy elementlari sifatida tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, mulohasa yuritish va xulosa chiqarish harakatlari amalga oshiradigan tafakkur turi. Mantiqiy fikrlashning o'ziga xos xususiyati – bu bir hodisaning turli tomonlari va atrofdagi dunyoning turli hodisalar o'rtasida haqiqatda mavjud bo'lgan turli xil aloqalarni izlash va o'rganishdir [3; 32-ctp].

Mantiqiy misol masalalar. Berilgan guruhlarda sonlar ma'lum bir qoida bo'yicha yoziladi. Har bir ustun uchun o'z qoidangizni o'rnating va nuqtalar o'rniga kerakli raqamlarni to'ldiring:

40 20 60 20 70 40 80 10 70

10 80 90 30 20 0 30 30 10

70 30 ... 50 90 ... 60 20 ...

Bu topshiriqlarni bajarayotganda bolalarga qoidani faqat qatordagi raqamlarni solishtirish emas, balki ularni ustunlar orqali ham topish kerakligini aytish kerak.

Sonlarni ikki guruhga ajrating: 15, 24, 25, 28, 30, 32, 35, 36, 40

Ushbu vazifani bajarayotganda, bolalarning e'tiborini berilgan sonlarni guruhlariga bo'lish belgisi berilmaganligi va ularni o'zlari aniqlashlari kerakligiga qaratish juda muhimdir. Sonlarni turli belgilar orqali ikki guruhga bo'lish mumkin. Masalan:

- juft sonlar, toq sonlar;

- 5 ga bo'linadigan va 5 ga bo'linmaydigan sonlar.

Shuni yodda tutish kerakki, bu yerda raqamlar o'zni bir biri bilan almashmaydi [4; 398 c].

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va didaktik o'yinlar orqali boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasidir. Mantiqiy tafakkurni shakllantirish boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallarni shakllantirish imkoniyatlaridan foydalanish uchun har bir tushunchaning mohiyati, mazmuni va uning o'quvchilar amaliy tajribasiga asoslanilishi hamda ko'rgazmalilikning keng yo'lga qo'yilishi, taqqoslash, xulosa chiqarish va konkretlashtirishga o'rgatish bo'lish usullarining o'rganilishi bilan birga umuman boshqa amallardagi o'xshash qonuniyatlarni taqqoslash asosida keltirib chiqarishga hamda mashq va misollarni echishni tahlil qilish asosida o'rgatilishi, xatolar ustida ishlash va bularning barchasidan samarali foydalanish asosini tashkil etadi. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar tushuncha o'qitilishini arifmetik amallar natijalar va komponentlari orasidagi bog'lanishning ahamiyatini hisobga olib, matematika o'qituvchilarining boshlang'ich ta'lim matematika kursini o'qitishda o'quvchilarda fikrlash ko'nikmalari, mashqlar echishda mantiqiy asoslash va fikrlashni talab etadigan biz ishlab chiqqan tavsiyalardan foydalanishlari ularning umuman matematik tayyorgarligi, qiziqish va qobiliyatlari rivojining oshishiga hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 07.05.2020 y., PQ-4708. "Matematika ohasi-ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"]].
- 2.РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ ДИДАКТИЧЕСК Выполнила:учитель начальных классов Шкулева Антонина Валерье ,Якутск – 2023; 21-22-стр
- 3.РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ ДИДАКТИЧЕСК Выполнила:учитель начальных классов Шкулева Антонина Валерье ,Якутск – 2023; 32-стр
4. Божович А.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Питер, 2008